

JIZZAX VILOYATIDA SUVDAN FOYDALANISH MASALALARI

Xoldorova Gulbahor Mixliboyevna,

(Jizzax Davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi, PhD)

Jalilova Sevinch Baxriddin qizi

(Jizzax Davlat pedagogika universiteti talabasi)

Annotatsiya: Maqolada yurtimizning aloxida hududlari tabiiy sharoitining shakllanishida organik dunyosi haqida so'z yuritiladi. Ayniqsa antropogen ta'sir oqibatida sho'rlanish darajasi yuqori bo'lgan Jizzax viloyatida tabiiy resurslaridan foydalanishga yangicha yondashuv zamon talabi ekanligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Jizzax viloyati, o'simlik, tuproq, tuproq sho'rlanishi. suv havzalari, irrigatsiya inshootlar, suv omborlar, kollektor, monitoring, tahlil, landshaft.

Аннотация: В статье рассматривается органический мир в формировании природных условий в отдельных регионах страны. Отмечается, что новый подход к использованию природных ресурсов является современным требованием, особенно в Джизакской области, имеющей высокий уровень засоления вследствие антропогенного воздействия.

Ключевые слова: Джизакская область
растительность, почва, засоленность почв. пруды, ирригационные сооружения, водохранилища, коллектор, мониторинг, анализ, ландшафт.

Abstract: The article deals with the organic world in the formation of natural conditions in certain regions of the country. It is noted that a new approach to the use of natural resources is a modern requirement, especially in Jizzakh region, which has a high level of salinity due to anthropogenic impact

Key words: Jizzakh region, vegetation soil, soil salinity. ponds, irrigation facilities, reservoirs, collector, monitoring, analysis, landscape.

Tabiatda suv resurslarining ahamiyatini barcha tirik organizmlarning xayotiy jarayonlari belgilab beradi. Suv geografik qobiqlarda barcha jarayonlarda ishtirok etadi va doimo harakatda bo'lib turadigan mineral hisoblanadi. Lekin u yer yuzining hamma joyida bir xil taqsimlanmagan. SHunday xududlar borki suv keragidan ortiqcha (albatta bunda o'ziga xos omillar rol o'ynaydi) bo'lib, noqulay sharoitni vujudga keltiradi, boshqa joylarda esa aksincha.

So'nggi yillarda iqlimning birmuncha qurg'oqchil kelishi, hamda aholi soni muttasil ortib borishi, ishlov beriladigan maydonlarning kengayishi tufayli Jizzax viloyatida ham hududda mavjud bo'lgan suv resurslaridan samarali foydalanishni talab etmoqda. Shuningdek keskin kontinental, issiq va quruq iqlimli viloyat xududida yillik yog'in miqdori janubda 400-500 mm, shimolda 250-300 mm bo'lishi suv resurslariga bo'lgan talabni yanada oshiradi.

Xududning yirik daryolari: Zominsuv, Sangzor hamda Turkiston Nurota tizmalaridan oqib tushuvchi Achchisoy, Jaloirsoy, Ravat kabi soylar, shuningdek sug'orishda Sirdayodan suv oluvchi 1 va 1-janubiy Mirzacho'l kanali hamda Tuyatortar kanalidan foydalaniladi. Bundan tashqari Jizzax suv ombori (maydoni 12,7 km², suv hajmi 87,5 mln m³) Zomin, Qorovultepa suv omborlari qurilgan. 2001 yildan boshlab Chordara suv omboridan oqizilgan suvlardan sug'orishda samarali foydalanish maqsadida Arnasoy suv ombori qurilgan.

Jizzax viloyati hududida joylashgan suv omborlari

1-jadval

Nomi	Maydoni (km ²)	Suv hajmi (m ³)	Qaysi daryo havzasida
Arnasoy	249	730	Sirdaryo
Jizzax	13.8	100	Sangzor, Zarafshon

Zomin	9.3	52	Zominsoy
Qorovultepa	7.53	53	Zarafshon
Xo‘jamushkent	0.45	8	Xo‘jamushkentsoy
Novqa	0.60	6	Novqasoy
Sarmich	0.13	4.3	Sarmichsoy

Viloyatda sug‘oriladigan maydonlar 300,0 ming gektar bo‘lib, Sirdaryo, Zarafshon, Sangzor daryolari, Janubiy Mirzacho‘l, Tuyatortor kanallari, Jizzax, Zomin, Qorovultepa, Xo‘jammushkent, Novqa suv omborlari, shuningdek, soy va buloqlar ekin maydonlarini suv bilan ta‘minlovchi asosiy manba hisoblanadi. Tashlama va sizot suvlaridan Arnasoy botig‘ida Tuzkon va Aydar Arnasoy ko‘llar tizimi vujudga kelgan.

Viloyat tabiiy iqlim sharoitidan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, asosan qishloq xjaligida sug‘orma dehqonchilikka ixtisoslashuvida ayniqsa suvning ahamiyati yuqori. Chunki 1 t jo‘xori yetishtirish uchun 3 mln l, 1 t sholi uchun 20 mln l, 1 t paxta uchun esa 12-20 ming m³suv sarflanadi ekan.

Keyingi yillarda sug‘oriladigan maydonlarining ayrim xududlarda ortishi bilan bog‘liq holda suvga bo‘lgan talabning ortib borishiga sabab bo‘lmoqda. Viloyatning paxtachilikka ixtisoslashgan hududlarida sug‘orishda agrotexnik oqibatida yer osti suvlari sathi ko‘tarilib tuproq sho‘rlanishiga olib kelmoqda. Shuningdek tog‘li hududlardagi daryo va soylar suvlari ham bir muncha kamayganligi kuzatilmoqda.

Viloyatning asosiy sug'oriladigan maydonlari Sirdaryo havzasiga kirishiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ushbu daryoning asosiy to'yinish manbai va suv yig'uvchi qo'shni mamlakatlar xududidir. Endilikda suv resurslaridan foydalanishda qo'shni resublikalar bilan hisoblashishga to'g'ri kelishini e'tiborga oladigan bo'lsak, xududdagi mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanishni taqozo etadi. Ma'lumotlarga qaraganda Orol havzasiga umumiy suv miqdorining bor yo'g'i 8% va sarflanishi 50%i O'zbekiston xududiga to'g'ri kelar ekan. Suv resurslaridan foydalanishda mintaqaviy hamkorlik masalalariga, qolaversa viloyat xududida mavjud havzalaridan ilmiy asosda foydalanish davr talabidir.

1-rasm. Jizzax viloyati kartasi



Mirzacho'l tekisligiga Jizzax viloyatidagi Arnasoy, Do'stlik, Zarbdor, Zafarobod, Paxtakor va Mirzacho'l tumanlaridagi 1720 ming ga sug'oriladigan yerlar kiradi. Bu hudud geografik o'rniga ko'ra shimolda Qozog'iston, sharqdan Sirdaryo viloyati Janubda Turkiston va Nurota tizmalarining tog' oldi tekisliklari bilan chegaradosh. G'arbda asta sekin Qizilqumga tutashib ketadi va tabiiy chegara Arnasoy botig'idan o'tadi.

Hudud yer yuzasi Sirdaryoning ko'hna qayirida lyossimon qumoq va qumloq hamda janubda tog'lardan oqib tushuvchi mavsumiy oqar suvlarning prolyuviat va allyuvial yotqiziqlaridan tarkib topgan. Qadimda bir necha marotaba dengiz bosishidan bu yerda karbonatli, gipsli va gilli sho'r jinsli qatlamlar hosil bo'lgan. Keyinchalik, sizot suvlari sathi pasayib, tuproq yuza qatlami vujudga kelgan. Yerlar sug'orilganda ostki qatlamdagi tuzlar yer yuzasiga chiqib qoladi.

Sizot suvlari sathi tog' oldi tekisliklarida 20-120 m dan, tekislik qismida 0,3 m chuqurlikda joylashgan. Sho'rli 30 g/l dan ortiq (tarkibida xlorid tuzlari ko'p). Sizot suvlarining oqimi nihoyatda sekin. Jizzax viloyati hududida bo'z tuproqlarni 2 xili och tusli bo'z tuproqlar (ko'pchilik qismida) va kamroq qismida prolyuvial tipik bo'z tuproqlar tarqalgan. Och tusli bo'z tuproqlarda suvda oson eriydigan tuzlar (sulfat kislotasi tuzlari va xlorli tuzlar) ko'p miqdorda bo'ladi.

Tipik bo'z tuproqlar och tusli bo'z tuproqlarga nisbatan gumus hamda azotning biroz ko'p bo'lishi bilan xarakterlanadi. Sug'oriladigan tuproqlar sug'orilmaydigan tabiiy holdagi tuproqlarga nisbatan ularda bir qancha o'zgarishlar sodir bo'lishi bilan farq qiladi.

Sug'orish, ayniqsa, haddan tashqari ko'p miqdorda suv berish, joyning umumiy suv rejimining o'zgarishi, ko'pincha esa sug'oriladigan hamda unga yaqin yerlardagi yerosti suvining ko'tarilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu esa yerosti suvlari ozmi-ko'pmi minerallashtirilgan bo'lsa, tuproqning sho'rlanishiga olib keladi.

Ko'pgina arxeologik topilmalar Jizzaxda qadimdan sug'orish tizimi mavjud bo'lganligidan darak beradi. Qadimda qazilgan O'rimboy o'g'uz va Tuyatortar kanallari orqali yerlar sug'orilgan. Tabiiy o'zanga ega bo'lgan daryo tarmoqlari o'zining qayir va deltalariga doimiy ravishda unumdor loyqa allyuvial yotqiziqlar bilan boyitib turgan va bu joyda judayam qalin agroirrigatsion qatlam vujudga kelgan.

Mirzacho'l hududida paxta maydonlarining kengaytirishi natijasida, Sirdaryodan suv oluvchi janubiy Mirzacho'l kanali, Markaziy Mirzacho'l kollektorlari sug'orish tizimlari sun'iy gidrografik to'ri vujudga kelishiga olib keldi. Ushbu tizimda oqayotgan suv sug'orishga yetib borguncha o'z yo'lida tinib loyqalik darajasi kamayib ketadi. Undan tashqari nishabligi past hamda tuproq yuvilishiga moyilligi va suv sarfini kamaytirish maqsadida ushbu sug'oruv tizimi qo'llanilgan. Buning natijasida tuproqning sho'rlanishiga qarshi meliorativ tadbirlar-vertikal va yopiq yotiq drenaj tarmoqlari barpo etilgan.

Jizzax viloyatida havo haroratining yuqoriligi bug‘lanish miqdorining oshishiga va o‘simliklar massasining kam bo‘lishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida tuproq qatlamida chirindi miqdorining kam bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Tabiiy hosildorligi past bo‘lgan tuproqda yuqori hosil olish uchun ko‘plab miqdorda mineral o‘g‘itlar solinishi, betartib sug‘orish natijasida tuproqlar sho‘rlanishi va qayta sho‘rlanishiga olib keladi.

XX asrning oxirgi choragida sug‘oriladigan yerlarning holatini yaxshilash maqsadida olib boriladigan meliorativ tadbirlar o‘z vaqtida o‘tkazilmaganligi sababli tuproq sho‘rlanishi oshib, hosildorlik pasayib ketgan. Ma’lumotlarga e’tibor beradigan bo‘lsak sug‘oriladigan yerlar o‘rtacha ball boniteti 1980 yilda 61,8 b, 1985 yilda 53 b, 1990 yilda 53 b, 1999 yilda esa 53 b ni tashkil etgan. Ko‘rinib turibdiki, tuproqning ustki haydalma qatlami qalinlashib, hosildorlik oshishi o‘rniga yerlar sho‘rlanib hosildorlik ko‘rsatkichlari 20 yil ichida 11,8 ballga kamaygan. Bunda asosiysi o‘z vaqtida agrotexnik tadbirlar o‘tkazilmagan. Drenaj zovurlarni tozalashga, sho‘r yuvish ishlariga e’tibor berilmagan. Yerlarni noto‘g‘ri sug‘orilishi tufayli keyingi vaqtlarda Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi ko‘tarilib, sho‘rlanishga moyil bo‘lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, agrotexnik tadbirlar o‘z vaqtida amalga oshirilmasa viloyat hududining atiga 10% dan ziyod hududini tashkil etgan ushbu sug‘oriladigan yerlar salmog‘i sifat jihatidan kamayishi mumkin. Buning uchun hozirgi davr yer egasi-fermerning quyidagi tadbirlarni o‘z vaqtida bajarishi kerak bo‘ladi:

- Sug‘orish tizimlarini birgalikda rekonstruktsiya qilish;
- yopiq yotiq drenaj quvurlarini va zovurlarini tozalash;
- Sho‘r yuvish ishlarini olib borish;
- fitomelioratsiya tadbirlari-ihota daraxtzorlarini barpo qilish;
- almashlab ekishni to‘g‘ri joriy qilish;
- ko‘proq organik o‘g‘itlaridan (chorva mollari chiqindisidan) foydalanish (bunda

tuproqda yashovchi mikroorganizmlar, chuvalchanglar boshqa jonivorlar faoliyati ancha yaxshilanadi). Bunday ishlarni o'z vaqtida, izchil amalga oshirish hosildorlikni ko'tarishda yuqori samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алибеков Л. Инсон ва табиат. “Фан ва технология” Тошкент. 2016
2. Abdunazarov, U., & Sabitova, N., Kholdorova, G. Morphological features of buried Soils of loess formations of the prytashkent region of Uzbekistan. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
3. Kholdorova, G. M. (2020). Changes In Natural Geographical Processes In The Mirzachul Region Under The Influence of The Sardoba Reservoir. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(3), 3136-3147
4. Хакимов, К. М., Холдорова, Г. М., & Эрматова, Н. Н. К. (2017). Принципы и основные положения номинации географических объектов. *Проблемы современной науки и образования*, (4 (86)).
5. Холдорова Г. Мирзачул табиий ўлкаси ландшафтларининг ўзгаришида шамолнинг аҳамияти, *Экология хабарномаси* 2021 №2(233)
6. Xoldorova, G. (2021). ПРОБЛЕМЫ МОНИТОРИНГА ОКРИЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ МИРЗАЧУЛЯ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1455>
7. Холдорова Г., Эсонов С.Э. М Сангзор хавзаси геосистемаларида тупрокларининг мелиоратив ҳолатини картага туширишда тизимли таҳлилдан фойдаланиш “*Journal of Natural Sciences*” №2 2021 у. <http://natscience.jspi.uz>
8. O.Ruzikulova, N. Sabitova G. Kholdorova **The role of GIS texnology in determining irrigateci geosistems** E3S Web of Conferences 227,03004(2021) GI

2021 <https://do.org/10.1051/e3sconf/202122703004>. 257 б

9. Холдорова Г Мирзачўл табиий шароитини шаклланишида ер усти ва ер ости сувларининг ўрни. Science and education in the modern world: challenges of the xxi century" *Nur-sultan, Kazakhstan, october 2020*

10.. Ғўдалов М.Р. Айдар-Арнасой кўллар тизимининг ландшафтларга таъсири // Г.ф.д. PhD илм. дар. олиш учун тақдим эт. дисс. авт. – Тошкент: 2019. -19 б